

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
ANIQ FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

С.М.Отажонов, Р.Н.Эргашев, Қ.А.Ботиров, У.Х.Маъруфова, Л.Э.Эргашева Исследование Влияния Глубоких Уровней На Фотоэлектрические Параметры Гетероструктур p-CdTe – n-CdS И p-CdTe – n-CdSe	4
М.А.Маматова, М.Ш.Юсупова Diodning volt–amper xarakteristikasi.....	10
А.А.Сапарбайев, В.Г'.Хидиров, Л.Р.Нурумбетова, З.А.Шодиева Har xil kovak tashuvchi qatlamlar yordamida perovskit quyosh elementlarning fotovoltaiк parametrlarini yaxshilash	15
С.А.Исмоилова, Ш.Ш.Шухратов Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun interfaol pedagogik yondashuvlar.....	22
М.К.Юлдашев Kremniyning optik va elektr xossalari	27
А.А.Сапарбайев, Л.Р.Нурумбетова, М.Н.Акбаров Donor:Y6 faol qatlam asosidagi polimer quyosh elementlarning optik va fotovoltaiк parametrlarini tadqiq qilish	30



UO'K: 378.014.543

**ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARIGA EGA O'QUVCHILAR UCHUN INTERFAOL
PEDAGOGIK YONDASHUVLAR****ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ****INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES FOR STUDENTS WITH SPECIAL
EDUCATIONAL NEEDS****Ismoilova Sarvinoz A'zamjon qizi¹** ¹Farg'ona davlat universiteti, Magistratura bo'limi Ta'lim tarbiya nazariyasi (texnologik ta'lim) magistranti**Shuxratov Sharof Shuxratovich²** ²Farg'ona davlat universiteti, O'quv ishlari bo'yicha prorektor PhD dotsent**Annotatsiya**

Ushbu maqolada alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar uchun innovatsion pedagogik yondashuvlar samaradorligi o'rganilgan. Zamonaviy texnologiyalar va maxsus metodikalar asosida ishlab chiqilgan ta'lim usullari, o'quvchilarning o'qish jarayonidagi kreativ qobiliyatlarini oshirish choralari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar bilimlarni puxta o'zlashtirishiga va ijtimoiy muhitga moslashuvini yaxshilashga yordam berish yo'llari bo'yicha fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada moslashtirilgan o'quv dasturlari va AKT vositalaridan foydalanishning o'quv jarayoniga ta'siri va maxsus integratsion yondashuvlar asosida ta'limning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Аннотация

В данной статье изучается эффективность инновационных педагогических подходов для учащихся с особыми образовательными потребностями. Представлена информация о мерах по развитию творческих способностей учащихся в процессе обучения с использованием методик, разработанных на основе современных технологий и специализированных методологических подходов. Исследуются способы содействия учащимся с особыми образовательными потребностями в более качественном усвоении знаний и лучшей адаптации к социальной среде. Кроме того, в статье анализируется влияние адаптированных учебных программ и ИКТ-инструментов на образовательный процесс, а также рассматриваются пути повышения эффективности обучения на основе специальных интеграционных подходов.

Abstract

This article examines the effectiveness of innovative pedagogical approaches for students with special educational needs. It provides information on measures to enhance students' creative abilities in the learning process through teaching methods developed based on modern technologies and specialized methodologies. The study explores ways to help students with special educational needs acquire knowledge more effectively and adapt better to social environments. Additionally, the article analyzes the impact of adapted curricula and ICT tools on the learning process and investigates ways to improve the effectiveness of education through specialized integrative approaches.

Kalit so'zlar: innovatsiya, inkluziva, kompetentsiya multimediya, integratsiya, texnologiya. Interaktiv.**Key words:** innovation, inclusion, competence, multimedia, integration, technology.**Ключевые слова:** инновация, инклюзия, компетенция, мультимедиа, интеграция, технология.**KIRISH**

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida inson manfaatlariga ustuvorlik berilgan bo'lib, yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional va oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni alohida e'tirof etish lozim. Yosh avlodga sifatli ta'lim berish masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilga asoslangan strategiyasida ham muhim siyosiy komponentlar qatoriga kiritilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev inson qadri tushunchasini izohlar ekan,

FIZIKA-TEXNIKA

«Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz»[1] deb ta'kidlaydi. [2]Respublikamizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlarga ta'lim berish sifatini oshirish maqsadida turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoj har olti oyda o'rganilib, shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib borish, oliy ta'lim muassasalarining tegishli ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha fanlardan audiomateriallar va Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilmoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida elektron darsliklar va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish inklyuziv ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ham ushbu sohada samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi. Bunday islohotlar natijasida imkoniyati cheklangan yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlari kengayib, ularning jamiyatda faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Kelgusida bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarni jamiyatga moslashuvini ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bu borada ko'p tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bunda o'quvchilarni ta'lim tizimida faolligini oshirish samaradorliglari o'rganilgan. Jumladan **A.I.Zayniddinova:** Maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilarni umumiy ta'lim jarayoniga qo'shish, ya'ni inkluziv ta'limni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion uslublarning ahamiyatini tahlil etgan. Muallif, eng avvalo, inkluziv ta'limning asosiy prinsiplarini: imkoniyatlar tengligi, individual yondashuv, takomillashtirilgan metodika va texnologiyalarni moslashtirish zarurligini ta'kidlab o'tadi.[3] **Sh.H. Hamroqulova** esa alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini o'rgangan. Ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus pedagogik metodlar, innovatsion yondashuvlar va texnologik yechimlardan foydalanishning ahamiyatini tahlil qilgan. Shuningdek, interaktiv ta'lim muhiti, moslashtirilgan dars uslublari hamda reabilitatsion vositalarning ijodiy tafakkur va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rnini ochib bergan va ilg'or xorijiy tajribalar va samarali usullar asosida takliflarni o'rgan.[4] **D.T Usmonov**ning izlanishlari Inklyuziv kompetentsiyani shakllantirish mezonlari va darajalarini asoslash kontekstli ta'lim texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida inklyuziv kompetentsiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqishdagi imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu model bir-biriga bog'liq bo'lgan, axborotga yo'naltirilgan, kvaziprofessional bosqichlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijasi inklyuziv ta'lim jarayonida o'z kasbiy funktsiyalarini bajarish qobiliyatini belgilovchi omillar va shartlarni aniqlash yo'llarini o'rgandi.[5] **M.H Asranbayeva** Inklyuziv ta'lim konseptsiyasi, uni rivojlantirishning asosiy vazifalari va tamoyillari, uzluksiz talim tizimida imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasbiy tayyorgarlik darajasini yuqori darajaga ko'tarish yo'llarini borasida tadqiqotlar olib borgan. [6]

Differensial yondashuvlar orqali har bir talabaning bilim darajasi, qobiliyati va qiziqishlariga mos o'quv usullari ishlab chiqildi. Tadqiqotchi talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitishning afzalliklari, o'quv materiallarini moslashtirish, mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish va individual yondashuvning ta'lim sifatini oshirishga qanday hissa qo'shishini batafsil o'rgangan. Ta'lim jarayonida differensial yondashuvlar va ularning ahamiyati **F.E Qodirov** tomonidan yoritilgan. [7]

NATIJA VA MUHOKAMA

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda innovatsion pedagogik yondashuvlar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim metodlari va didaktik vositalar maxsus ta'limga ehtiyojmant o'quvchilar uchun qulay samarali ta'lim muhitini ta'minlaydi. Bu borada bir nechta innovatsion yondashuvlar muhim. Jumladan, differensial va moslashtirilgan ta'lim ushbu yondashuvda o'quvchilarning individual fikrlashlari inobatga olinadi

va o'rganiladi. O'quv dasturlari va metodlari har bir bolaning qobiliyatiga va qiziqishlariga mos ravishda shakllantiriladi.

Differensial yondashuv quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: O'quv materialining murakkablik darajasini moslashtirish; Mustaqil va guruh bo'lib ishlash usullarini kombinatsiya qilish; Individual o'qitish rejalari asosida ta'lim berish; Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun differensial yondashuvlarni qo'llash bo'yicha bir nechta tadqiqotlar ta'lim jarayonida individual yondashuvlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy holatiga mos keladigan ta'lim jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayon maxsus ehtiyojga ega o'quvchilarga yordam berish bilan birga ularning malaka va kompetensiyalarini shakllantirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moslashtirilgan o'quv materiallari va turli xil o'quv uslublari yordamida o'quvchilar mavzuga yanada chuqurroq qiziqish bildirishgan hamda mustaqil faoliyat yuritishda faolliklari sezilarli darajada ortgan. Sababi bunday vositalar orqali o'quvchilar ta'lim olishdagi bir muncha qiyinchiliklarni chetlab o'tadi hamda ta'limga bo'lgan munosabatlari ijobiy tarzga o'zgaradi va faolligi oshadi. Bunday ta'lim turlari o'quvchilarning qobiliyatlariga mos topshiriqlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi natijada ularning hayotga bo'lgan ishtiyoqini ortiradi. O'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida differensial yondashuv asosida ta'lim olgan o'quvchilarning bilim olish jarayoni tezlashgani, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanganligi aniqlangan. Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv uslublari orqali ularning bilim olish jarayoni yaxshilangan. Bu o'quvchilarga maxsus texnologiyalar masalan, (audiokitoblar, interaktiv qo'llanmalar, sensorli ekranli qurilmalar,) orqali ta'lim berish natijasida ta'lim samaradorligi oshgan.

Audio kitoblar: Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun samarali vosita hisoblanadi bunda ilmiy manbalar o'qitilib audio shaklida yozib olingan bo'ladi. Audio kitoblar orqali o'quvchilarga ilmiy manbalardan unumli foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Sensorli ekranli qurilmalar: bugungi kunda ta'lim sohasida eng ommalashgan innovatsion vosita hisoblanadi. Bu vosita nafaqat alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarga balki boshqa o'quvchilarning ta'limi samaradorligini oshirishda ham katta xizmat qilmoqda. Bunday vositalar orqali interaktiv dasturlardan foydalanish juda qulay hisoblanadi.

Interaktiv qo'llanmalar alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning ta'lim sifatini oshiradi: O'qituvchi uchun dars mobaynida har bitta o'quvchiga alohida e'tibor qaratishi biroz mushkul shu sababdan o'quvchilarga birdek ta'lim berishga harakat qiladi. Bunday vaziyatlarda o'quvchilarni doimiy nazorat qilish har bitta o'quvchining individual harakatlarni sinovdan o'tkazishda interaktiv qo'llanmalar samarali hisoblanadi. Ushbu qo'llanmalar orqali o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish juda oson usul hisoblanadi. Interaktiv vositalar turli xil videoroliklar va metodik o'yinlar o'quvchilarni darsga bo'lgan tushunchasini shakllantirishda qo'l keladi. Bunday qo'llanmalar animatsiyalar va interaktiv simulyatsiyalar kabi turli multimedialarni kontentlarni qamrab oladi.

Kahoot!: Platformasi interaktiv viktorinalar va so'rovlar yaratishda ishlatiladi. O'qituvchilar o'zlarining viktorinalarini yaratishlari yoki oldindan tayyorlangan shablonlardan foydalanishlari mumkin.

Quizizz: viktorina bu platforma turli mavzular bo'yicha tayyor viktorinalarning keng tanlovini, shuningdek, o'z viktorinalaringizni yaratish imkoniyatini taqdim etadi.

Quizlet Live – bu o'quvchilarga jamoa bo'lib ishlash va bir-birlari bilan raqobatlashish imkonini beruvchi viktorinaga asoslangan interaktiv o'yin. Bu talabalar o'rtasida hamkorlik va o'zaro munosabatlarni rag'batlantirishning ajoyib usuli.

Multimedialar: Platformalarda namoyish etilayotgan multimedia kontenti axborotning bir nechta turlarini ifodalaydi: matn, tasvir, audio, video, animatsiya va boshqa elementlarni namoyon qiladi bu alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarga darsni tushuntirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Interfaol o'quv platformasida multimedialardan foydalanishning afzalliklari juda ko'p misol uchun: Vizual ishtirokni mavjudligi: Tasvirlar, videolar va animatsiyalar o'quvchilar e'tiborini qaratishda qo'l keladi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli tarzda o'tishiga yordam beradi.

Ma'lumotlarni eslab qolish: Mavzuga doir videoroliklar o'quvchilarga turli sezgi kanallaridan foydalanish orqali ma'lumotni yaxshiroq eslab qolish va saqlashga yordam beradi.

Interfaollik: Multimedia kontentiga interaktiv yondashilgan bo'lsa bu o'quvchilarga o'quv jarayonida faol ishtirok etish, topshiriqlarni bajarish testlarni ishlash imkonini beradi. Differensial

FIZIKA-TEXNIKA

yondashuv yordamida o'tkazilgan darslar o'quvchilarning ilmiy tushunchalarni yaxshiroq o'zlashtirishiga hamda murakkab mavzularni individual tahlil qilishiga yordam bergan. Ayniqsa, guruh va juftlik shaklida o'qitish jarayonida o'quvchilar bir-birlariga yordam ko'rsatish, ijtimoiy muloqot qilish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirishgan. Bu esa ularning ta'lim jarayonida faollashishi va bir-biridan o'rganishiga olib kelgan.

Moslashtirilgan ta'lim – bu har bir o'quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda shakllantirilgan ta'lim jarayoni. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moslashtirilgan ta'lim usullari yordamida o'quvchilarning bilimlari chuqurlashib, amaliy ko'nikmalari mustahkamlanadi. Turli o'quv materiallari va moslashuvchan ta'lim metodlari ularga mos keladigan o'qish usullarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, maxsus pedagoglar tomonidan individual ta'lim yondashuvlarining qo'llanilishi o'quvchilarning ta'lim jarayonida ishtirok etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini baholashi va ta'lim jarayoniga mas'uliyati oshgan. Har bir o'quvchi o'z darajasiga mos topshiriqlar orqali o'z bilimlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Shu sababli, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun differensial yondashuvlarni keng joriy qilish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Diagramma tahlili

Ushbu diagrammada alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar uchun turli ta'lim yondashuvlarining samaradorlik darajalari (%) ko'rsatilgan.

1.An'anaviy ta'lim (50%)

- Bu odatiy ta'lim tizimi bo'lib, barcha o'quvchilar uchun bir xil yondashuvni qo'llaydi.
- Kamchilik: Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin, chunki ularning o'ziga xos ehtiyojlari hisobga olinmaydi.

2.Differensial ta'lim (65%)

- Bu usulda o'quvchilar turli darajadagi qiyinchiliklarga ega bo'lishi hisobga olinadi.
- Yaxshi tomoni: O'quvchilar bilim darajasiga qarab turli topshiriqlar oladi.
- Cheklovi: Hali ham individual ehtiyojlar to'liq qondirilmaydi.

3. Moslashtirilgan ta'lim (75%)

- Bu usulda har bir o'quvchining ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan ta'lim rejasi ishlab chiqiladi.
- Afzalliklari: Maxsus jihozlar, moslashtirilgan o'quv materiallari va individual yondashuv qo'llaniladi.

4.Interfaol usullar bilan moslashtirilgan ta'lim (85%)

- Bu eng samarali usul bo'lib, moslashtirilgan ta'lim va interfaol usullar birgalikda qo'llaniladi.
- Nega samarali?
- O'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi
- Virtual laboratoriyalar, testlar, texnologik simulyatorlar ishlatiladi
- Mashg'ulotlar vizual, audial va kinestetik usullar bilan olib boriladi.

XULOSA

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish va ularning o'zlashtirish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, differensial va moslashtirilgan ta'lim metodlari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi va ularning bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan interaktiv qo'llanmalar, audio-kitoblar, sensorli ekranli qurilmalar va multimedialar yordamida dars jarayonlari yanada samarali va qiziqarli tashkil etilishi mumkin. Shu bilan birga, Quizlet, Kahoot, Quizizz kabi interfaol platformalar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalar shuni ko'rsatadiki moslashtirilgan ta'lim orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rivojlanganligi va o'qishga bo'lgan qiziqishining oshgani aniqlandi. Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'quvchilarning jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashga yordam beradi.

Shu boisdan, alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar uchun moslashtirilgan va interfaol ta'lim metodlarini keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishda eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // «Xalq so'zi» gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018)
2. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2023-yil 23-sentyabr qabul qilingan). <https://lex.uz/docs/-501300>
3. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo 26 maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilar uchun inkluziv ta'limda raqamli yechimlar va innovatsion metodlar Zayniddinova Aziza Ismoil qizi Buxoro Innovatsiyalar Universiteti
4. Hamroqulova Sh.H "Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi MUOMMOLAR" Международный научный журнал «Научный импульс» № 11 (100), часть 1 июня, 2023 465-467-п.
5. Usmonova D.T "Nogironligi mavjud o'quvchilar bilan ishlashda bo'lajak o'qituvchilarning inkluziv ta'lim kompetentiyasini shakllantirish" "Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya june 2022
6. Munojatxon Halimjanovna Asranbayeva p.f.f.d. (phd), dotsent maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri namangan davlat pedagogika instituti "inkluziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv" april 23-24, 2024 <https://cspu.uz/> international scientific and practical conference
7. Qodirov Farrux Ergash o'g'li Shahrisabz davlat pedagogika instituti Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri PhD, Ilmiy rahbar Fayzullayeva Dilnura Husan qizi Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi TA'LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUVLAR, TALABALAR EHTIYOJLARIGA MOSLASHTIRILGAN O'QITISH USULLARI.<<Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar:Nazariya amaliyot>>nomli ilmiy, masofaviy,onlayn konfirensiya
8. Madatov Ilhom Yusup O'g'li "Inkluziv ta'lim" Toshkent-"BEST-PUBLISH" 2024
9. Ta'lim Jarayonida Interaktiv Ta'lim Platformalarning Qo'llanishi Tahlili Karimov Feruz Raimovich 1 2024: Special Issue: Utilization of Scientific Advancements in Research and Education